

VOLUME II | ISSUE 2 | FEBRUARY

Journal of Culture and Art

КУЛТУРА И ИСКУССТВО
МАДАНИЈАТ ВА САНЃАТ

| 2024

ISSN: 2181-4562



Available online at www.imfaktor.com

 **IMFAKTOR**
Science driven pages

ISSN: 2181-4562
DOI Journal 10.56017/2181-4562

МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

II-ЖИЛД, 2-СОҢ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-II, НОМЕР-2

JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-II, ISSUE-2

ТОШКЕНТ – 2024

МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

№ 2 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4562-2024-2>

БОШ МУҲАРРИР:

Халикулова Гўзал
Эркиновна

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
профессори в.б., Санъатшунослик фанлари номзоди

МАСЪУЛ МУҲАРРИР:

Мелиқўзиев Иқбол
Мамасодиқович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
кафедра мудири, профессор в.б., Санъатшунослик
фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ:

Касимов Нозим
Козимович

Ходжаметова Гулчира
Илишевна

Маданият ва туризм вазирлиги “Таълим ва илм-фанни
ривожлантириш бошқармаси” бошлиғи, профессор
Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти Нукус
филиали “Санъатшунослик” факультети декани, Тарих
фанлари номзоди, профессор

Абдувоҳидов
Фахриддин
Мелигалиевич

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
кафедра мудири, доцент, Санъатшунослик фанлари
бўйича фалсафа доктори (PhD)

Кадиров Рамз
Турабович

Умаров Мамур
Боташикович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Саҳна
нутқи” кафедраси доценти

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
“Санъатшунослик ва маданиятшунослик” кафедраси
профессори в.б., фалсафа фанлари номзоди

Худоев Ғани
Муҳаммадович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти
“Чолғу ижрочилиги ва мусиқа назарияси” кафедраси
профессори в.б., Санъатшунослик фанлари бўйича
фалсафа доктори (PhD)

Бердиханова Шахида
Нурлыбаевна

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати
институти “Ўзбек мақоми тарихи ва назарияси”
кафедраси мудири, санъатшунослик фанлари бўйича
фалсафа доктори (PhD)

Дўсанов Раҳимжон
Раимқулович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти, “катта
ўқитувчи”, мустақил тадқиқотчи

Суннатиллаев Асатилло
Суннатович

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати
институти “Илмий тадқиқотлар, инновациялар ва илмий-
педагогик кадрлар тайёрлаш” бўлими бошлиғи, мустақил
изланувчи (PhD)

Алланбаев Рудакий
Оринбаевич

Қорақалпоғистонда хизмат кўрсатган артист, “Шуҳрат”
медали соҳиби, профессор в.в.б

Зиявутдинова Зулфия
Усеиновна

“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

Раимова Дилфузахон
Махаммадсолиевна

“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

Ботирова Хилола
Турсунбаевна

“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

*“Маданият ва санъат” журнали 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган. Мазкур журнал **6 та** халқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун **UIF 2023 = 7.7 “импакт-фактор”** кўрсаткичига эга.*

*Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатига мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар **хорижий мақолалар сифатида тан олинади.***

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдураҳмон Хасанов

Таҳририят манзили: Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: www.imfaktor.uz/com

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© “IMFAKTOR Pages” илмий нашриёти , 2024 йил.

© Мўаллифлар жамоаси, 2023 йил.

МАДАНИЯТ ВА САҢЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

AXMEDOVA Oygul Maxammataliyevna

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti
ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori,
filologiya fanlari nomzodi
professor v.b.*

ORIPOVA Ra'no Ibroximovna

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti
kafedra mudiri, pedagogika fanlari nomzodi
dotsent*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10648504>

О'ЗБЕК ХАЛҚ ДОСТОНЛАРИНИНГ О'ЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

ANNOTATSIYA

Dostonlarning tarixiy asoslari juda qadimiy bo'lib, unda tarixiy voqelik xalq fantaziyasi asosida umumlashgan obrazlarda o'z ifodasini topadi. Binobarin, ularda epik umumlashtirish hukmronlik qiladi. Bunday umumlashtirish xalqning ijtimoiy adolat haqidagi ideallari va orzu-umidlari bilan yo'g'rilgan. Demak, dostonga epiklik, monumentallik xos bo'lib, kompozitsion va syujet qurilishi jihatidan murakkab voqea-hodisalarni qamrab oladi. Shu ma'noda, mazkur maqolada dostonlarning qadimiy namunalaridan qahramonlik dostonlari, ularning patriarxal-urug'chilik munosabatlari, shuningdek, mumtoz adabiyotning dostonchilikka ta'siri, o'zbek xalq dotonlarining ijtimoiy-ma'naviy xususiyatlari xususida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: doston, janr, ijro, ijrochilik, an'anaviylik, og'zakilik, stilistik, turg'unlik, marosim, adabiylik, epiklik, monumentallik.

ОСОБЕННОСТИ УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ БЫЛИН

АННОТАЦИЯ

Историческая основа былин очень древняя, в ней историческая действительность находит свое выражение в обобщенных образах на основе народной фантазии. Следовательно, в них преобладает эпическое обобщение. Такое обобщение было сделано идеалами и мечтами народа о социальной справедливости. Итак, былине присуща эпичность, монументальность, она охватывает сложные по композиции и сюжетному построению события. В этом смысле в данной статье рассматриваются героические эпосы из древних образцов эпоса, их патриархально-родовые отношения, а также Влияние классической литературы на эпос, социально-духовные особенности узбекских народных дотонов.

Ключевые слова: эпос, жанр, перформанс, перформанс, традиционализм, словесность, стилистика, застой, ритуальность, литературность, эпичность, монументальность.

FEATURES OF UZBEK FOLK EPICS

ANNOTATION

The historical basis of the epics is very ancient, in which historical reality finds its expression in generalized images based on folk fantasy. Consequently, epic generalization prevails in them. This generalization was made by the ideals and dreams of the people about social justice. And so, epicness and monumentality were not inherent, it covers events that are complex in composition and plot structure. In this sense, this article examines the heroic epics from ancient samples of the epic, their patriarchal-tribal relations, as well as the influence of classical literature on the epic, the socio-spiritual features of Uzbek folk traditions.

Keywords: epic, genre, performance, performance, traditionalism, literature, stylistics, stagnation, ritualism, literature, epic, monumentality.

Og‘zaki ijod namunasi bo‘lgan dostonlar ko‘plab variantlarga egaligi (misol uchun bugunga qadar «Alpomish» dostonining 50 yaqin, «Go‘ro‘g‘li» turkum dostonlarining yuzga yaqin variantlari yozib olingan), jamoaviyligi, an‘naviyliigi bilan yozma adabiyot namunasi bo‘lgan dostonlardan ajralib turadi. Xalq og‘zaki ijodining eng yuksak namunasi bo‘lgan dostonlar og‘zaki o‘zlashtiriladi, og‘zaki ijro etiladi va og‘zaki tarzda meros qoldiriladi.

Akademik T.Mirzaev folklorning asosiy xususiyatlari haqida to‘xtalar ekan, quyidagilarni qayd etadi. “Folklorning asosiy xususiyati ijodiy jarayon – yaratuvchilik va ijrochilik jarayonining og‘zakiligi va unga ko‘pchilikning ishtiroki (jamoaviylik xarakteriga ega bo‘lishi) bilan belgilnadi. Uning an‘naviylik, o‘zgaruvchanlik, variantlilik, ommaviylik, anonimlik (muallifining noma‘lumligi) kabi ko‘pdan-ko‘p belgilari folklorga xos ijodiy jarayonning ana shu bosh xususiyati doirasida namoyon bo‘ladi.

Folklor asari ko‘pchilik tomonidan, ajdodlar va avlodlar aloqadorligida yaratilgan badiiy vositalar, an‘naviy uslub unsurlari asosida yuzaga keladi, u muayyan eshituvchilar guruhiga mo‘ljallangan va xalq ommasi tomonidan e‘tirof etilgandagina ijtimoiy va tarixiy ahamiyat kasb etadi. Folklor namunalari og‘zaki yaratilib, og‘zaki tarqalishi, ommaviy repertuardan keng o‘rin olishiga badiiy shakllarning barqarorligi (turg‘unligi), matndan-matnga o‘tuvchi umumiy o‘rinlarning qat‘iylashganligi, (masalan, dostonlardagi epik klishelar, an‘naviy stilistik formulalar kabi), o‘xshash sayyor syujetlarning ko‘pligi imkoniyat yaratadi. Har bir ijodkor (qayta ijod) va ijroda an‘naviy asardagi ayrim unsurlar o‘zgaradi, nimalardir avvalgisidan boshqacharoq talqin etiladi, qay epizodlar qo‘shiladi yoki tushib koladi. Bunday o‘zgaruvchanlik ijtimoiy muhit, maishiy sharoit, eshituvchilar talabi, ijodkor salohiyatiga ham bog‘liq, albatta. Lekin har qanday o‘zgarish, ijro davomidagi qayta ijod asrlar davomida qat‘iylashgan puxta an‘analari doirasida sodir bo‘ladi. Demak, jonli og‘zaki an‘ana doirasidagi badihago‘ylik folklor asarlarining ko‘p variantlarda tarqalishiga olib keladi.

Folklorning jamoaviylik xarakteri yakka ijodchilar faoliyatini inkor etmaydi. Iste‘dodli ijodkorlar folklor na‘munalarini saqlab qolish va keng ommalashtirish bilan birga og‘zaki an‘analari doirasida uni yanada mukammallashtiradilar, ba‘zan yangilarini ham yaratadilar. Biroq, bunda qat‘iylashgan va barqarorlashgan jamoaviylik an‘analari yetakchilik qiladi. Shuning uchun ham folklorning deyarli barcha janrlari turli-tuman ijodkorlar faoliyati bilan bog‘liqdir” [1].

T.Mirzaev tomonidan keltirilgan yuqoridagi fikrlar to‘laligicha dostonlarning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib ko‘rsatib beradi. Bundan tashqari, filologiya fanlari doktori, professor Muhammadnodir Saidovning ilmiy izlanishlari orqali ham doston janrining o‘ziga xos jihatlari ko‘rishimiz mumkin. “Doston, avvalo, murakkab san‘at asaridir. Dostonda xalq san‘atining turli tomonlari namoyon bo‘ladi.

Epik asar doston bo'lishi uchun, birinchidan, adabiy tekst adabiy, badiiy manba bo'lishi kerak. Ikkinchidan, dostonning musiqasi bo'lishi lozim (bu o'rinda shuni aniqlab olish kerakki, har bir alohida olingan doston uchun alohida yirik musiqa asari bo'lishi shart emas). Doston musiqasi undagi she'riy parchalarning vazn o'lchoviga, uning ritmi va mazmuniga mos keladigan qo'shiqlardan tashkil topgan va bir butunlikni tashkil etgan asar bo'lishi talab qilinadi. Uchinchidan, dostonni bir kishi ijro etganligi, kuylovchi soz (do'mbira, qo'biz, dutor va boshqalar)ni bilishi zarur. To'rtinchidan, dostonni kuylayotgan baxshi yaxshi ovozga ega bo'lishi va qo'shiq aytish mahoratini egallagan bo'lishi zarur. Mana shu shartlarning bari mavjud bo'lgan taqdiridagina tinglovchilar tom ma'noda doston eshitgan bo'ladi. Bu shartlarning birortasi bo'lmasa, bunday doston tinglovchiga o'zining emotsional ta'sirini kutilgan darajada bera olmaydi.

Dostonda tugallangan adabiy badiiy tekst epik asar bo'lmasa, o'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, u doston emas, balki kuylanayotgan qo'shiq yoki qo'shiqlar majmuasi bo'lib qoladi. Agar dostonning musiqasi bo'lmasa, u yana tom ma'noda doston bo'lolmaydi, balki dostonning ertak yoki afsona shaklida aytilishi bo'lib qoladi va bu ishni xalq ijodiga qiziqqan har bir kishi qila olishi mumkin. Bunda professional dostonchining keragi bo'lmay qoladi. Musiqa bo'lmagandan keyin musiqa asbobi: do'mbira, dutor, qo'biz va hokazolar o'z-o'zidan tushib qoladi va ijro etuvchining ovozigina bo'lgan talab ham o'z-o'zidan yo'qoladi. Agar adabiy manba – tekst qismi va musiqa bo'la turib, cholg'u bo'lmasa, dostonni uzoq kuylash ham mumkin emas; dostonning emotsional ta'siri ham yuksak darajada bo'lolmaydi. Tasavvur qilaylik, yuqorida aytib o'tilgan uchta talabning barchasi bo'lib, dostonchining ovozi yoqimli bo'lmasa e'ki u alohida qo'shiqlarni mohirlik bilan ijro eta olmasa, shuningdek, ijro etilayotgan dostonning ayrim-ayrim epizodlariga yarasha dostonchining xatti-harakati va mimikasi bo'lmasa, boshqacha qilib aytganda, dostonchi yaxshi hofiz va yaxshi aktyor bo'lmasa, unday dostonchining ijrosiga talab kam bo'ladi, binobarin, bu asar keng ma'noda doston bo'lmaydi.

Ma'lumki, dostonchi baxshi doston kuylaganda tinglovchilar auditoriyasiga katta ahamiyat beradi. Doston auditoriya talabiga ko'ra o'zgarib boradi. Bir xil toifa tinglovchilar o'rtasida kuylangan muayyan doston ikkinchi xil tinglovchilar oldida hech vaqt aynan takrorlanmaydi. Bunda kuylayotgan dostonchining kayfiyati ham katta rol o'ynaydi. Bu hodisa dostonning badiiyligini oshirishda muhim ahamiyatga molik bo'lib, umuman, doston janri uchun juda xarakterlidir" [2].

Demak, dostonning adabiy qismi hajm jihatdan katta hamda ko'p janrlik xususiyatlariga ega bo'lishi uning o'ziga xos janr ekanligini ko'rsatadi.

Dostonlarning tarixiy asoslari juda qadimiy bo'lib, unda tarixiy voqelik xalq fantaziyasi asosida umumlashgan obrazlarda o'z ifodasini topadi. Binobarin, ularda epik umumlashtirish hukmronlik qiladi. Bunday umumlashtirish xalqning ijtimoiy adolat haqidagi ideallari va orzu-umidlari bilan yo'g'rilgan. Demak, dostonga epiklik, monumentallik xos bo'lib, kompozitsion va syujet qurilishi jihatidan murakkab voqea-hodisalarni qamrab oladi. Bunday voqea va hodisalar mazmunan qahramonlik xarakteriga ega bo'lib, ular xalq idealidagi bahodir atrofiga birlashtiriladi. Favqulodda kuch-qudratga ega bo'lgan bunday yakka shaxslarda butun bir xalqning orzu-umidlari, imkoniyat va intilishlari mujassamlashgan. Xalq dostonlarining tematik hamda janr xususiyatlari uning o'ziga xos uslubi va formasini belgilaydi, ya'ni kuy va ijro bilan mahkam bog'liq bo'lgan yirik hajmli va keng ko'lamlil dostonlarning poetik bayoniga ko'tarinkilik, tantanavorlik, an'anaviylik, she'riy va prozaik qismlarning davomiy almashinib kelishi xosdir.

Dostonlarning qadimiy namunalari qahramonlik dostonlaridir. Qahramonlik dostonlari patriarxal-urug'chilik munosabatlari bilan, ko'chmanchilik va yarim ko'chmanchilik hayot tarzi bilan mahkam bog'liqdir. Ularda real ijtimoiy voqelik qahramonlik idealizatsiyasi doirasida ko'tarinki ruhda tasvirlanadi. Qahramonlik dostonlarining yorqin namunasi «Alpomish» (X acp) va uning davomi «Yodgor» dostonlaridir. «Alpomish»da qahramonlik, mardlik, vatanparvarlik, do'stlik, vafo va sadoqat ulug'lanadi. Qahramonlik dostonlari ta'sirida jangnoma dostonlar yuzaga keldi.

Agar qahramonlik dostonlarida bosh qahramon faoliyati yakkama-yakka olishuvlarda, bahodirlik shartlarini bajarishda namoyon bo'lsa, jantnomalarda turli-tuman xarakterdagi urush epizodlarida ko'rsatiladi. Dushmanga qarshi kurashda mardlik va jasorat ko'rsatish, ona yer butunligi uchun kurash, el-yurtlar birligi, vatanparvarlik va do'stlik kabi olijanob g'oyalar kuylanadi. «Yusuf bilan Ahmad» va uning davomi bo'lgan «Alibek bilan Bolibek» dostonlari buning yorqin misolidir. Har ikkala doston vatanparvarlik tuyg'ulari, ona yurt sog'inchi bilan yo'g'rilgan.

Tarixiy dostonlar tarixda bo'lib o'tgan voqea va hodisalar, ayrim tarixiy shaxslar faoliyati asosida yaratilgan bo'lib, bunday dostonlarda tarixiy haqiqat bilan afsona, fakt bilan badiiy to'qima o'ziga xos ravishda chatishib ketgan. «Oysuluv», «Tulumbiy», «Shayboniyxon», «Oychinor», «To'lgonoy», «Nomoz», «Mamatkarim polvon» kabilar shu turga mansub. Ular tarixdagi konkret voqealar va faktlarni tasvirlash xakteri, hujjatiylikning darajasi jihatidan bir-birlaridan jiddiy farq qiladi. O'zbek dostonchiligining keyingi taraqqiyot davrlarida tarixiy dostonlarning bir xili sifatida afsonaviy baxshilar hamda ayrim dostonchilarning hayot yo'li tasvirlangan avtobiografik va biografik dostonlar («Kunlarim», «Tarjimai hol», «Mulla G'oyib», «Ollonazar Olchinbek», «Mahtumquli» va b.) yuzaga keldi.

Xalq dostonlarining katta bir turini romanik epos namunalari tashkil etadi. XII-XVII asrlarda yaratilgan bunday dostonlar o'z davrining ijtimoiy-siyosiy munosabatlari bilan bog'liq bo'lib, ularning mohiyatini sevgi mojarolari, ko'rqinchli sarguzashtlar, ertakka xos fantastik voqealar, shu bilan birga hayotiy hodisalar tasviri belgilaydi. Romanik dostonlarning syujet tuzilishi nihoyatda bir-biriga o'xshash bo'lib, odatda, qahramon g'oyibona oshiq bo'lgan go'zalni izlab safarga otlanadi, ajoyib-g'aroyib hodisalarni, qiyin sarguzashtlarni boshidan kechiradi, g'ayritabiiy kuchlar bilan to'qnashadi, barcha qiyinchiliklarni yengib o'z maqsadiga erishadi. Biroq bu dostonlarning har biri kompozitsion qurilishi, obrazlari, motivlarining ishlanish xakteri va mazmunlari jihatidan mustaqil bo'lib, bir-birlaridan farqlanadilar.

Romanik dostonlarning tarkibi nihoyatda murakkab. Qahramonlik dostonlarida romanik eposga xos jihatlar bo'lganidek, romanik dostonlardan qahramonlik unsurlari, jangnomalar xususiyatlari ham mustahkam o'rin olgan. Hatto bazi dostonlarda bir necha mavzu baravar ishlangan. Qahramonlik-romanik dostonlarda («Rustam» turkumi, «Yakka Ahmad», «Go'ro'g'li» turkumiga kiruvchi bir qancha asarlar) qahramonlik yo'nalishi ustun tursa, ishqiy-romanik dostonlarda («Kuntug'mish», «Orzigul», «Yozi bilan Zebo», «Go'ro'g'li» turkumining so'nggi halqalari) sevgi mojarolari, sarguzashtli voqealar tasviriga alohida e'tibor beriladi.

O'zbek xalq dostonlari jonli og'zaki ijroda asrlar davomida boy yozma adabiyot namunalari bilan yonma-yon yashab keldi. Mumtoz adabiyotning dostonchilikka tasiri barakali bo'ldi. Bunday jarayon XVII asrdan keyin yanada kuchaydi. Oqibatda romanik eposning bir turi sifatida kitobiy dostonlar yuzaga keldi. Bunday dostonlar mumtoz she'riyat namunalarining baxshilar tomonidan folklorga xos ravishda qayta ishlanishi natijasida yuzaga kelgan yoki yaratilishi jihatidan yozma adabiy manbaga ega bo'lgan, shuningdek, bevosita yozma adabiyot ta'sirida yaratilgan asarlardir. «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Bahrom va Gulandom», «Yusuf va Zulayho», «Varqa bilan Gulshoh», «Vomiq bilan Uzro», «Zevaxon» va boshqa shu xil dostonlardandir [3].

Xalq dostonlarini kuylash an'analari hozirgi davrga qadar yashab kelmoqda. O'zbekistonning Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand hamda Xorazm viloyatlarida yashab ijod etayotgan baxshilardan ko'plab doston namunalari bugungi kunda ham yozib olinmoqda.

ИҚТИБОСЛАР. СНОСКИ. REFERENCES.

1. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. – T.: O‘qituvchi, 1990.
2. “XX asr o‘zbek folklorshunosligi”. Antologiya. –T.: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2017.
3. Mirzayev T. Folklor va uning asosiy xususiyatlari. “XX asr o‘zbek folklorshunosligi”. Antologiya. –T.: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. - B.261-263.

ISSN: 2181-4562
DOI Journal 10.56017/2181-4562

МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

II-ЖИЛД, 2-СОН

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-II, НОМЕР-2

JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-II, ISSUE-2

«Маданият ва санъат» электрон журнали 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz